



## MAHMUD QOSHG'ARIY VA DEVONU LUG'ATIT-TURK ASARI

**Usmonova Elmira**

Qoqond Universiteti Andijon Filiali

Ijtimoiy gumanitar va pedagogika fakulteti

Filologiya tillarni o'qitish O'zbek tili talabasi.

**Annotatsiya.** Mahmud Koshg'ariy tomonidan 11-asrda yaratilgan "Devonu lug'atit-turk" asari — turkiy tillarning ilk lug'atidir. Asarda turkiy qabilalarning tillari, shevalari, madaniyati, urf-odatlar va qadimiy hayot tarzi aks ettirilgan. Muallif turkiy tillarni arab tilida sharhlab, turkiy xalqlarning boy til va adabiy merosini ilmiy asosda tasvirlagan. Asar nafaqat lug'at, balki tarixiy, etnografik, adabiy va madaniy manba sifatida ham qimmatlidir. Unda ko'plab maqollar, she'rlar va xalq og'zaki ijod namunalariga o'rin berilgan. "Devon" turkiy xalqlar tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Mahmud Koshg'ariy, Devonu lug'atit-turk, turkiy tillar, qadimgi adabiyot, tarixiy manba, etnografiya, lug'atshunoslik, turkiy xalqlar, til va madaniyat, maqollar, qadimgi she'riyat.

**Аннотация.** Девонуско-тюркский словарь, созданный Махмудом Кошгари в 11 веке, является первым словарем тюркских языков. В произведении отражены языки, шевасы, культура, обычаи и древний уклад жизни тюркских племен. Комментируя тюркские языки на арабском языке, автор научно описал богатое языковое и литературное наследие тюркских народов. Произведение ценно не только как словарь, но и как исторический, этнографический, литературный, культурный ресурс. В нем собрано множество пословиц, стихов и образцов народного творчества. «Девон» играет неоценимую роль в изучении истории тюркских народов.

**Ключевые слова:** Махмуд Кошгари, девонский словарь-тюркский, тюркские языки, древняя литература, исторический источник, этнография, словарь, тюркские народы, язык и культура, пословицы, древняя поэзия.



**Annotation.** *The Devonu Dictionary-Turkic, created by Mahmud Koshgari in the 11th century, is the first dictionary of Turkic languages. The work reflects the languages, shevas, culture, customs and ancient way of life of Turkic tribes. Commenting on the Turkic languages in Arabic, the author scientifically described the rich linguistic and literary heritage of the Turkic peoples. The work is valuable not only as a dictionary, but also as a historical, ethnographic, literary, and cultural resource. It contains many proverbs, poems and examples of folk art. "Devon" plays an invaluable role in the study of the history of the Turkic peoples.*

**Keywords:** Mahmud Koshgari, Devonian dictionary-Turkic, Turkic languages, ancient literature, historical source, ethnography, dictionary, Turkic peoples, language and culture, proverbs, ancient poetry.

Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Koshg'ariy – XI asrning buyuk allomasi, tilshunos, geograf va tarixchi olimi sifatida tarixda muhim o'rin egallagan. U 1029–1038-yillar oralig'ida Qashg'arda (hozirgi Sharqiy Turkiston hududi) tug'ilgan. Mahmud Koshg'ariyning eng mashhur asari — "Devonu lug'atit-turk" ("Turk tillari lug'ati majmuasi") bo'lib, bu kitob nafaqat tilshunoslik tarixida, balki butun turkiy xalqlarning madaniy merosida alohida ahamiyat kasb etadi.

Til- millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Shu boisdan insoniyat paydo bo'libdiki til insonlar bilan yonma yon yashab, insonlar tomonidan o'rganilib unga oid ilmiy asarlar, turli xil nazariyalar bundan tashqari tilning yangidan yangi sohalari paydo bo'lib kelmoqda. Qadim zamonlardan beri bizning yurtimiz buyuk alloma va olimlar beshigi hisoblanadi. Qaysi bir sohaga nazar tashlasak, o'sha fanda katta yangiliklar yaratishgan va qaysidir fan asoschilaridir. Shu jumladan tilshunoslik sohasida ham bir qancha asarlar yozilib, ilmiy izlanishlar olib borgan va ushbu izlanishlar natijasida bir qancha tilshunoslikning yangi sohalarni yaratishgan. Shu o'rinda Mahmud Qoshg'ariyning „Devonu lug'atit turk” asari tilshunoslik sohasida o'ziga xos ahamiyatga egadir.



Bizgacha yetib kelgan qadimgi yozma obidalaridan lingvistik jihatdan eng ahamiyatlisi Mahmud Qoshg'ariyning „Devonu lug‘atit turk” asaridir. XI asrda yashab ijod qilgan tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning tilshunoslikka oid „Devonu lug‘atit turk” asari O‘rta Osiyo xalqlarining tili tarixini o‘rganish uchun eng muhim manbadir. Bu asar XI asrning 70- yillarida yozilgan bo‘lsada, XX asrning boshlarida tarjima qilinib, bu asar ustida ko‘plab jahon va turkiy olimlar tomonidan tarjima qilingan va ilmiy izlanishlar olib borilgan. „Devonu lug‘atit turk” asarida turkiy tillar leksikasiga oid 7500 dan ziyod so‘z izohlanganli va boshqa manbalarda esa 9000 so‘z deb berilgan. Bu asar nafaqat o‘sha davr tilidagi lug‘at sifatida, balki shu bilan birga O‘rta Osiyo doirasidagi, ya’ni yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududlarda yashagan urug‘lar, qabilalar, xalqlarni va ular tillarini va u davr tilining fonetikasi, morfologiyasi, leksikasi haqida to‘liq ma’lumot beruvchi va shu davr tilidagi har xil adabiy janrlardan namunalar beruvchi nodir filologik asardir.

"Devonu lug‘atit-turk" 1072–1074-yillar oralig‘ida Bag‘dodda yozilgan. Asarning yozilish maqsadi arab olimlariga turkiy tillarning boyligini, ularning madaniy yuksakligini ko‘rsatish va turkiy xalqlarni yaxshiroq tanishtirish bo‘lgan. Mahmud Koshg'ariy bu lug‘atni arab tilida yozgan, chunki o‘sha davrda ilmiy asarlar asosan arab tilida bitilar edi. Lug‘atda 7500 dan ortiq so‘z va atamalar to‘plangan, ularning talaffuzi, ma’nosi va qo‘llanishi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari, turli turkiy qabilalarning shevalaridan namunalar keltirilgan, maqollar, matal va qadimiy she’riyat namunalari jamlangan.

Asar o‘zida nafaqat lingvistik ma’lumotlarni, balki tarixiy, geografik va madaniy tafsilotlarni ham aks ettiradi. Mahmud Koshg'ariy asarida o‘z davrida mavjud bo‘lgan turkiy qabilalar, ularning yashash joylari va hayot tarzi haqida muhim ma’lumotlar beradi. Bu jihat "Devon" ni faqat lug‘at emas, balki qadimiy tarix va etnografiya uchun ham qimmatli manbaga aylantiradi.

Shuni ham aytish joizki, turkiy qabila va xalqlarning eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklarini o‘rganishda "Devonu lug‘atit turk” dagi adabiy materiallar katta ahamiyatga ega. Asardagi og‘zaki adabiyot namunalarining ko‘pi mavsum qo‘shiqlari



va peyzaj lirikasi janrlariga kiradi. Bular qadim zamonlardagi kishilarning tabiat hodisalari haqidagi tushunchasi va bu hodisalarga munosabatini ifodalaydi. Asardagi soʻzlarga nazar tashlasak, ularning sof turkona ekanligini tezda fahmlaymiz. Aynan shuning uchun ham u turkiy tillar oʻtmishini yorituvchi oʻxshashi yoʻq asar hisoblanadi.

Mahmud Qoshgʻariy asaridan oʻrin olgan turkiy soʻzlar bugungi kunda ham saqlanib qolgan boʻlib, tilimizda unchalik oʻzgarmasdan shundayligicha ishlatilib kelinmoqda. Bunga misol keltiradigan boʻlsak, “un-un, tovush, ovoz, sado”; gapirish, kuylash, qichqirish, yigʻlash va shu kabilar vaqtda yuzaga keladigan va eshitish aʼzolari qabul qila oladigan hodisa; qozoqlar “dibis” turklar esa “ses” deb ishlatadigan “un” soʻzi bugungi kunda badiiy sanʼatimizda koʻproq ishlatiladi.

Mahmud Qoshgʻariyning asarida “tilku” yaʼni “tulki” soʻzi ham koʻzga tashlanadi. Bu soʻz bilan xalqimiz qiz bolaga kinoya qilganlar. Biron xotin tugʻganda doydadan “tilkumi tugʻdi azu boʻrimu – tulki tugʻdimi yoki boʻrimi” deb soʻralgan. Yaʼni qizmi yoki oʻgʻilmi degan maʼnoda ishlatilgan. Qizlar aldoqchi va yalinchoq boʻlganlari uchun tulkiga, oʻgʻil bolalar botir boʻlgani uchun boʻriga oʻxshatilgan.<sup>1</sup>

Mahmud Koshgʻariy asarida turkiy xalqlar tilining boyligini, sofligini va oʻziga xosligini gʻurur bilan taʼkidlaydi. U arab va fors tillari bilan raqobat qila oladigan mustaqil til va madaniyat borligini ilmiy asosda isbotlaydi. Aynan shu sababli, "Devonu lugʻatit-turk" bugungi kunda ham turkiy tillarning rivojlanish tarixini oʻrganishda beqiyos manba hisoblanadi.

Mahmud Koshgʻariyning faoliyati va asarlari nafaqat oʻtmishdagi, balki hozirgi zamondagi tilshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar uchun ham muhim ilmiy asos va ilhom manbaidir. U yaratgan "Devonu lugʻatit-turk" asari turkiy xalqlarning maʼnaviy boyligi sifatida abadiy qadrlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” asaridagi koʻplab soʻzlar kundalik hayotimizda qoʻllanib kelmoqda va asarda qanday

---

<sup>1</sup> Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, 4(5), 36-38.



bo'lsa shunday ko'rinishda tilimizda saqlanib qolgan. Ba'zi so'zlar esa bugungi kunda so'zlashuvda qo'llanmasligi yoki ularning o'rnida yot so'zlarning ishlatilayotgani hollari ko'p. Shunga qaramay asarda keltirilgan so'zlar bugungacha yetib kelgani turkiy tillarning qanchalik kuchga, teran ildizga ega til ekanini ko'rsatadi. Ming afsuski bugungi kunda xalqimiz boshqa tillardan so'z o'zlashtirayotgani sababli ana shunday sof turkona so'zlar yo'qolib bormoqda. Turkiy so'zlarimizning arxaik so'zlarga aylanib qolishi bu juda achinarli holatdir. Bizning tilimiz o'z o'zidan paydo bo'lib qolgani yo'q uning rivojlanishi uchun ko'plab ajdodlarimiz mehnat qilishgan. Jumladan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmud Qoshg'ariy, Abdulla Qodiriy va boshqa shu kabi bobolarimiz tilimizning rivoji uchun o'z hissalarini qo'shishgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOATLAR**

1. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, 4(5), 36-38.
5. O'G'LI, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.



8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 438-442.
10. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 11, 2, 18-20, 2024,
11. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION, Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 28, 1, 230-233, 2024,
12. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.
13. Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. *Science and innovation*, 3(Special Issue 34), 178-181.
14. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. *University Research Base*, 992-995.